



ALIMENT BO'YICHA GAROV VA KELISHUV SHARTNOMASI

*QDU Yurisprudensiya yonalishi
talabasi Paraxatova Uǵilay Amangeldi qizi
Ilimiy rahbar :
Tilewmuratov Mámbetbay*

Annotatsiya: Mazkur maqolada aliment majburiyatlari bo'yicha garov va kelishuv shartnomalari institutining nazariy-huquqiy asoslari yoritilgan. Oila a'zolari o'rtasida yuzaga keladigan aliment majburiyatlarini bajarishda garov va kelishuv asosida huquqiy kafolatlarni mustahkamlash masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, amaldagi qonunchilikdagi kamchiliklar va ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Aliment, garov, kelishuv shartnomasi, aliment majburiyati, notarial tasdiq, ijro varaqasi, oila huquqi.

Kirish: Oila a'zolarining bir-biriga nisbatan bo'lgan majburiyatlar, xususan, aliment majburiyati – bu huquqiy munosabatlarning eng muhim jihatlaridan biridir. Alimentlar bo'yicha nizolar ko'p hollarda sudlar orqali hal etilsada, amaliyotda ko'ngilli kelishuv asosida ularni hal etish shakllari keng tarqalmoqda. Ayniqsa, kelishuv shartnomalari va aliment bo'yicha garov vositasida majburiyatning ta'minlanishi sohasida qonunchilikda mustahkamlab borilmoqda.

Aliment majburiyatlarini bajarishdagi asosiy muammo – bu qarzdorning o'z vaqtida va to'liq to'lovni amalga oshirmasligi. Shu bois garov instituti mazkur majburiyatning ijrosini ta'minlash vositasi sifatida ahamiyatlidir.

Aliment majburiyati – qonun bilan belgilangan yoki shartnoma asosida yuzaga keladigan oila a'zolarining bir-biriga moddiy yordam ko'rsatish majburiyatidir. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 96-moddasidan boshlab aliment masalalari tartibga solinadi.

Quyidagi shaxslar o'rtasida aliment munosabatlari yuzaga kelishi mumkin:



- ota-onalar va voyaga yetmagan bolalar o‘rtasida;
- er-xotin o‘rtasida;
- boshqa qarindoshlar (masalan, bobosi- buvisi va nabiralar) o‘rtasida.

Majburiyatlar nafaqat sud orqali, balki o‘zaro kelishuv asosida ham amalga oshirilishi mumkin.

Kelishuv shartnomasi mazmuni Aliment bo‘yicha kelishuv shartnomasi – bu taraflarning o‘zaro roziligi asosida tuzilgan, aliment miqdori va to‘lash tartibini belgilovchi hujjatdir. U notarial tasdiqlanishi shart va ijro hujjati sifatida kuchga ega.

Shartnomada quyidagi bandlar bo‘lishi mumkin:

- aliment miqdori (foiz yoki qat’iy summada);
- to‘lovning muddati va tartibi;
- to‘lov shakli (naqd/pul o‘tkazish yo‘li bilan);
- javobgarlik va kelishuvni bekor qilish tartibi.

Kelishuvning afzalliklari

- Sudga murojaat qilinmasdan muammoni hal qilish.
- Tomonlarning o‘zaro ishonchini saqlash.
- Ko‘p hollarda vaqt va xarajat tejaladi.

Garov tushunchasi va huquqiy asoslari

Garov – bu kreditorning talabini ta’minalash uchun qarzdorga tegishli mol-mulkni majburiyatni bajarmaslik xavfiga qarshi ushlab turish vositasi.

Aliment sohasida garov o‘ziga xos shakllarda qo‘llaniladi:

- ko‘chmas mulk (uy, yer);
- ko‘char mulk (avtomobil, texnika);
- bankdagi jamg‘armalar.

O‘zbekistonda aliment majburiyatlarini garov bilan ta’minalash amaliyoti keng emas. Biroq aliment shartnomasiga garov kiritilishi mumkin va bu shart turli aktivlar orqali notarial hujjatga kiritiladi. Garov shartnomasi alohida tuzilishi va davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi kerak.

Kamchiliklar



- Aliment shartnomalarida garov kam qo'llaniladi.
- Notariuslar tomonidan kelishuv mazmuni chuqur tekshirilmaydi.
- Aliment qarzining to‘planib ketishiga yo‘l qo‘yilmoqda.

Takliflar

- Aliment shartnomalarini garov bilan bog‘lashni qonun bilan majburiy qilish.
- Aliment shartnomalariga ijro mexanizmlarini kengaytirish.
- Garovga qo‘yilgan mol-mulk haqida yagona elektron reyestr joriy etish.

Xulosa Aliment majburiyatlarini bajarishda ishonchli huquqiy vositalardan biri bu – kelishuv shartnomasi va uni garov orqali ta’minalashdir. O‘zbekiston amaliyotida bu tizim endigina rivojlanmoqda. Kelajakda ushbu institutlarni yanada mustahkamlash orqali fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish mumkin. Shu sababli, aliment sohasida qonunchilikka qo‘sishimchalar kiritilishi va ijro mexanizmlari kuchaytirilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.
2. “Notariat to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent, 2022.
3. Abdullayev Q.X. Oila huquqi. Darslik. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021.
4. Mustafayev A. Fuqarolik huquqi asoslari. – Toshkent, 2020.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5246-sonli qarori, 2021 yil 18 avgust.